



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	194
	Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	198
	Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	202
	Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	205
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	208
	Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	212
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	216
	Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	221
	Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i>	224
	Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	227
	Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	235
	Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	238
	Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	243
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	246
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i>	251
	Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i>	255
	Talabalarning dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	259
	Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	264
	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	269
	Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	273
	Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	278
	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	282
	Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	285



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING ILLUSTRATIV YONDASHUV ASOSIDA KREATIV VA VARIATIV FAOLIYAT OLIB BORISH USULLARI VA YO'LLARI



Egamberdiyeva Madina Sharif qizi
 Osiyo texnologiyalari universiteti
 magistranti

Annotatsiya: Ta'lim tizimining zamonaviy bosqichida maktabgacha ta'lim eng muhim va asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Zero, mustaqil, serg'ayrat, ijodkor va har tomonlama rivojlangan shaxsni yetishtirish har bir pedagogning asosiy vazifasidir. Bo'lajak tarbiyachilar tarbiyalayotgan bolalarning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyati aynan shu davrdagi to'g'ri yondashuv va puxta tashkil etilgan ta'lim jarayoniga bevosita bog'liq. Ana shu jarayonda pedagogdan zamonaviylik, yangilikka ochiqlik, ijodiy tafakkur, bolaga individual va yangi yondashuvlarni tanlay bilish ko'nikmalari talab etiladi. Dunyoqarashi shakllanib borayotgan bolalarning tafakkurini ochish, o'zini anglashga va mustaqil harakat qilishga o'rgatishda, albatta, kreativ hamda variativ metodlar, ayniqsa, illustrativ yondashuvning o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kreativ faoliyat, variativ metod, illustrativ yondashuv, tarbiyachi, bolalar, amaliy mashg'ulot, vizual idrok, innovatsion metodika, pedagogik texnologiya, tasviriy faoliyat, ijod, zamonaviy metod.

Abstract: At the modern stage of the education system, preschool education plays the most important and fundamental role. After all, the main task of every educator is to raise an independent, energetic, creative, and comprehensively developed individual. The success of children raised by future educators at subsequent stages directly depends on the correct approach and a well-organized educational process at this stage. In this process, the educator is required to be modern, open to innovation, possess creative thinking, and have the ability to choose individual and innovative approaches to each child. In order to develop the thinking of children whose worldview is still being formed, and to teach them self-awareness and independent action, the role of creative and variative methods, especially the illustrative approach, is invaluable.

Key words: preschool education, creative activity, variative method, illustrative approach, educator, children, practical training, innovative methodology, pedagogical technology, visual perception, creativity, modern method.

Аннотация: На современном этапе развития системы образования дошкольное образование играет важнейшую и фундаментальную роль. Ведь главная задача каждого педагога – воспитание самостоятельной, энергичной, творческой и всесторонне развитой личности. Успех детей, воспитанных будущими педагогами, на последующих этапах напрямую зависит от правильного подхода и хорошо организованного образовательного процесса на данном этапе. В этом процессе от педагога требуется быть современным, открытым к новаторству, обладать творческим мышлением и умением выбирать индивидуальные и новые подходы к ребёнку. Для раскрытия мышления детей, мировоззрение которых находится в стадии формирования, а также для обучения их самопониманию и самостоятельности неопределима роль творческих и вариативных методов, особенно иллюстративного подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческая деятельность, вариативный метод, иллюстративный подход, педагог, дети, практическое обучение, инновационная методология, педагогические технологии, визуальная деятельность, творчество, современный метод.

KIRISH

Bolalarning ayrim tushunchalarni chuqur anglashlari uchun axborotni obraz, ko'rgazma, jismoniy materiallar va jonli namunalar orqali taqdim etish muhimdir. Illustrativ yondashuv bola tafakkuriga obrazli yondashuv orqali yetib boradi. Bu usulda pedagog o'rgatilayotgan mavzuni real suratlar, chizmalar, maketlar, rangli kartochkalar va didaktik qurilmalar yordamida ko'rsatadi. Chunki bolalarda bu bosqichda vizual idrok asosiy rivojlanish omili sanaladi. Bola ko'radi, ushlab ko'radi, ta'sirlanadi va shundan keyin mavzuni yaxshiroq anglaydi. Masalan, "Hayvonlar olami" mavzusida tarbiyachi jonli hayvonlarning sun'iy maketlarini, rasmlarini, videolarni ko'rsatib, ularni barmoqlari bilan ushlab ko'rish, suratini chizish, qog'ozdan yasalgan namunalar bilan ishlash uchun

imkoniyat yaratadi. Yoki "Fasol niholini ekish" loyihasida har bir bosqich suratlar va dokumental rasmlar orqali namoyish etilsa, bolaning faolligi va qiziqishi kuchayadi. Shunda nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikma, estetik did va mulohazali fikrlash qobiliyati ham shakllanadi. Mazkur metod kreativ va variativ faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika tarbiya jarayonida bolaga faqat bilim berishni emas, balki uni mustaqil fikrlashga, ijod qilishga va o'z imkoniyatlarini namoyon etishga undaydi. Bo'lajak tarbiyachilar esa bugungi kunda ko'pincha illustrativ metoddan foydalanib, bolalarda kreativ fikrlash, muomala madaniyati va muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Kreativ yondashuvda pedagog har bir mashg'ulotga o'ziga xos tarzda yondashishi, yangi g'oyalarni sinab ko'rish hamda har bir bolaga individual yondashishi talab etiladi. Bu holatda bo'lajak tarbiyachilarning illustrativ yondashuv asosida bolalarga ta'lim berishi va kreativ usullar orqali bilim berishi nazarda tutiladi. Bolalar bilan olib borilayotgan rasm chizish mashg'ulotlarida ularga shunchaki tayyor rasmni nusxa ko'chirtirish emas, balki har bir bolaning o'z dunyoqarashi, rang tanlashi va tasvirni ijodiy anglashiga yo'l ochish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda har bir farzand o'z iqtidorini kengroq namoyon qilish, mustaqil fikrlash va yangi tasvirlar yaratish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Illustratsiyalar bolalarning sifatli va samarali bilim olishlari uchun xizmat qiladi.

Shu o'rinda ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan fikrlar o'rganib chiqilganda, illustratsiyaga ilmiy ta'rif berishda R. Arnheym "vizual tafakkur" tushunchasini ilgari surib, tasvirni idrok etish fikrlashning bir shakli ekanligini ta'kidlaydi. L.S. Vigotskiy esa bolalikdagi ijodkorlikni "hayotiy tajriba va vizual obrazlar sintezi" deb baholagan. Zamonaviy tadqiqotchi R. Mayerning multimedia ta'limi nazariyasiga ko'ra, vizual va verbal ma'lumotlarning uyg'unligi (Dual-Coding) xotira samaradorligini 70 % ga oshiradi. O'zbekistonlik olimlardan M. Asqarova maktabgacha ta'limda ko'rgazmalilikni "didaktik qurol"dan "ijodiy vosita"ga aylantirish mexanizmlarini taklif etgan. Variativlik pedagogik faoliyatning o'ziga xos yo'li bo'lib, ta'lim oluvchining ehtiyojlari, qobiliyati va qiziqishlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturlari, shakllari va usullarini tanlash imkoniyati sifatida talqin etiladi.

Variativlik haqida ko'plab olimlarning ilmiy asoslangan fikrlarini ko'rib chiqish mumkin. A.G. Asmolov tahlillarida variativ ta'limni shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosi deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Variativlik bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini ta'minlaydi". V.V. Davidov nazariyasida esa variativlik shunchaki tanlov emas, balki ta'lim muhitini bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlariga moslashtirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu usul bolalarning o'zaro hamkorlik qilish, bir-birini tinglash, g'oyalarni baham ko'rish va guruh bo'lib ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda ijodiy faoliyat va mustaqillikni rivojlantirish uchun har bir mashg'ulotni puxta tayyorgarlik bilan, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish muhimdir. Illustrativ yondashuv asosida quyidagi amaliy usullar ham samarali hisoblanadi: tashqi muhitni turli rasmiy va rangli elementlar bilan bezash, bolalar uchun vizual ishoralar, belgi-signal, maxsus dizayn vositalari hamda interaktiv ko'rgazmalar tashkil etish orqali sezgi va qayta ishlash mexanizmlari muvaffaqiyatli rivojlantiriladi.

Mashg'ulot davomida notanish buyumlar, mozaikal, loyihalar, kasb egalari haqidagi varaqalar, ijtimoiy rollar va hikoyalar yordamida boladagi kreativ ko'nikmalarni faollashtirish mumkin. Shu asosda bo'lajak tarbiyachi rangli kostyumlar, ijodiy bo'yoqlar va konstruktorlardan foydalanib, bolalarning tasavvuri hamda obrazli fikrlashini rivojlantiradi. Har bir faoliyatga bolalarni faol jalb qilish uchun "Erkin kompozitsiya", "Qiziqarli so'z o'yini", "Fantaziya mashg'uloti" kabi management usullari ham keng afzalliklarga ega. Masalan, mashg'ulot so'nggida bolalardan istalgan tasvir yoki syujetni erkin chizib, o'z nutqi va fantaziyasini namoyon etish so'raladi. Bu orqali bolaning didi, mantiqiy xotirasi, nafosati hamda erkin ifoda eta olish qobiliyati yuksaladi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida innovatsion interaktiv doskalar, raqamli tasvirlar, QR-kodli ko'rgazmali kartalar, infografikalar va animatsiyali videolar orqali bolalar darslariga zamonaviy ruh va faollik kirib keldi. Bu illustrativ yondashuv asosida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar, o'z navbatida, pedagogik jarayonning sifat jihatdan o'zgarishini, bolalarning ko'nikmalari hamda faoliyat motivatsiyasi kuchayishini ta'minlamoqda. Aynan bo'lajak tarbiyachilarga zamonaviy vosita va resurslar bilan ishlash, pedagogik loyihalar tayyorlash, individual dars metodikalarini ishlab chiqishda illustrativ yondashuv yordam beradi. Shuningdek, muammoli, loyihaviy va amaliy topshiriqlar, master-klasslar hamda kreativ laboratoriyalar orqali bolalarga hayotni o'rgatish, ularda mustaqil qarashlarni shakllantirishga yordam berilmoqda. Eng muhimi, har bir bolaning individualligini qadrlash, uning o'z "Men"ini ochish uchun tarbiyachi doimo ochiq va variativ usullardan foydalanishi kerak.

Bugungi yo'nalishda bo'lajak tarbiyachilarga innovatsion uslublarni o'rgatishda ixtisoslashtirilgan seminar-treninglar, faoliyatni monitoring qilish, ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan loyihalar hamda zamonaviy usullarda nostandart darslarni olib borish katta tajriba beradi. Tanlangan illustrativ yondashuv-



lar nafaqat pedagog, balki bolaning o'z-o'zini tarbiyalashida va jamoada to'g'ri o'rin egallashida ham qulay muhitni vujudga keltiradi. Tadqiqot va olib borilgan metodik tajribalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy hamda amaliy mashg'ulotlar orqali bola o'zini jamiyatda erkin tutadi, o'z ehtiyoj va manfaatlarini tushunadi, ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'limda illustratsiyaviy yondashuv faqat rasm ko'rsatish emas, balki vizual manipulyatsiya, ya'ni tasvir bilan o'ynash hisoblanadi. Bugungi kunning xalqaro va zamonaviy pedagogikasida tan olingan, bolalar uchun mo'ljallangan eng samarali illustrativ metodlarni ko'rib chiqish mumkin. Tugallanmagan obraz metodi. Bu metod bolaning divergent (ko'p tarmoqli) tafakkurini rivojlantirish uchun eng kuchli vositalardan biridir. Tarbiyachi qog'ozga aniq bir shakl emas, balki tushunarsiz chiziq, doira yoki ilmoq chizib beradi. Bola ushbu chiziqni biror narsaga o'xshatib, uni tugallangan illustratsiyaga aylantirishi kerak. Bitta doira bir bolada "quyosh", ikkinchisida "kuchukchanning burni", uchinchisida esa "sehrli ko'zgu"ga aylanishi mumkin. Bu usul asosida o'tkazilgan faoliyat bolalarning ijodkorligini oshiradi.

"Applikatsiyali hikoya" metodi illustratsiyani hajmli va o'zgaruvchan qilish imkonini beradi. Ushbu metodda tarbiyachi tayyor rasmlar, geometrik shakllar hamda turli fakturali materiallar (paxta, mato, barglar) to'plamini beradi. Bola berilgan mavzu bo'yicha (masalan, "Dengiz osti dunyosi") ushbu elementlardan foydalanib, o'zining vizual ssenariysini yaratadi. Bola elementlarni joylashtirish orqali kompozitsiya va mantiqiy bog'liqlikni o'rganadi.

Shaffof ekran metodi vizual idrokni yangi darajaga olib chiqadi. Shaffof oyna yoki plastmassa ostiga biror illustratsiya qo'yiladi. Bola oynaning ustidan rangli markerlar yoki bo'yoqlar bilan chizib, illustratsiyaga yangi detallar qo'shadi. Masalan, daraxtga mevalar chizadi yoki qahramonga kiyim kiydiradi. Natijada bolalar "qatlamlar" bilan ishlashni va tasvirni modifikatsiya qilishni o'rganadilar. "Vizual topishmoq" metodi diqqat va analiz qobiliyatini charxlaydi. Murakkab, detallarga boy illustratsiya ichiga boshqa kichik obrazlar yashiriladi. Masalan, daraxt shoxlari orasida yashiringan hayvonlar tasvirlanadi. Bola yashirin obrazlarni topishi va ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirib berishi kerak. Ushbu metod orqali bolalarda detallarga e'tibor berish hamda vizual qidiruv ko'nikmasi shakllanadi. "Rangli metaforalar" metodi orqali hissiy intellekt va kreativlik uyg'unligi oshadi. Bolalarga turli rangdagi "dog'lar" (klyaksografiya) ko'rsatiladi. Ushbu rangli dog'larning qanday kayfiyatda ekanligini aytish va ularga yuz qiyofasi, ya'ni emotsiya chizib berish vazifasi yuklatiladi. Bu metod orqali bolalar mavhum rangli obrazlar vositasida ichki kechinmalarini vizuallashtirishni o'rganadilar. "Mnemotexnik zanjir" metodi xotira va nutqni illustratsiya orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi ertakning asosiy nuqtalarini kichik piktogrammalar, ya'ni belgi-rasmlar ko'rinishida chizib chiqadi. Bola ushbu "rasimli kod"ga qarab ertakni qayta so'zlab berishi yoki o'zi yangi "kodlar" zanjirini yaratishi kerak. Bu usul orqali bolalarda axborotni kodlash va dekodlash, ya'ni o'qish hamda yozishning ibtidoiy shakliga oid ko'nikmalar rivojlanadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, amaliyotga zamonaviy usullarning kirib kelishi va ilg'or tajriba almashuvi yosh avlodning erkin, mustaqil, ijodiy va faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Aynan bolani markazga qo'ygan, har bir individuumga xos qobiliyat va iste'dodlarni ochishga yordam beradigan pedagogik yondashuvlar, xususan, illustrativ metod, kreativ va variativ ishlanmalar bugungi kunda eng samarali, dolzarb hamda muhim yo'llardan biri sanaladi. Kelajagi porloq, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, o'z fikrini bemalol bayon qila oladigan yoshlarni voyaga yetkazish uchun tarbiyachilar doimo yangilikka intilishi, kreativ fikrlashi hamda o'quvchi imkoniyatlarini ochishga harakat qilishi darkor. Yangi pedagoglar uchun metodik yordam sifatida har bir kirish so'zi, amaliy misol, ijodiy mashg'ulot va vizual ko'rgazmali materiallardan oqilona hamda zamonaviy usulda foydalanish zamon talabidir.

Shuningdek, metodik ishlanmalar va innovatsion tajriba almashuvi to'g'ri yo'ldan borishda muhim amaliy yordam beradi. Bo'lajak tarbiyachi zamonaviy, ochiq, kreativ va individual ilg'or metodlardan foydalansa, maktabgacha ta'lim muassasalarining kelajagi ishonchli qo'llarda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayeva N. Maktabgacha ta'lim: zamonaviy texnologiyalar, Toshkent, 2021. (45-48-betlar)
2. Abdullayeva S. Maktabgacha ta'lim metodikasi, Respublika pedagogika ilmiy-amaliy markazi, Toshkent, 2022. (112-120-betlar)
3. G'ofurova D. Yosh bolalar psixologiyasi, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2020. (62-69-betlar)
4. Karimova M. "Illustrativ metod va uning imkoniyatlari", Ilm sifati jurnali, 2022-yil, 4-son. (51-59-betlar)
5. O'zbekiston Prezidenti Qarori PQ-3959 "2019-2023-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish dasturi", rasmiy hujjat. (8-14-betlar)
6. Ibragimova S. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik metodlar, Toshkent, 2021. (119-123-betlar)
7. Xudoyberdiyev I. "Illustrativ usullarning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati", Ta'lim va zamon jurnali, 2023-yil, 5-son. (33-40-betlar)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.